

GLOBALLASHUV JARAYONLARI VA XALQARO MUNOSABATLAR

Abror Xaydarov

TDTrU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Hozirgi globallashuv davrida xalqaro munosabatlar jahon siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotining ajralmas qismiga aylandi. Davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchayib, xavfsizlik masalalari jahon hamjamiyati uchun umumiy muammoga aylanmoqda. Shu bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilish, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va global xavfsizlik tizimini mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur mavzuning o'rganilishi xalqaro siyosat va sotsiologiya uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, unda xalqaro munosabatlarning nazariy asoslari, xavfsizlik mexanizmlari hamda globallashuv sharoitida korporativ diplomatiyaning o'rni tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *xalqaro munosabatlar, xalqaro siyosat, tashqi siyosat, xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik, milliy xavfsizlik, siyosiy realizm, siyosiy idealizm, kuchlar muvozanati, xavfsizlik mexanizmlari, kollektiv xavfsizlik, kollektiv mudofaa, kooperativ xavfsizlik, kooperativ diplomatiya.*

Annotation. *In the contemporary era of globalization, international relations have become an integral part of the world's political, economic, and cultural life. The interdependence between states and nations is intensifying, and issues of security are increasingly becoming a common concern for the global community. At the same time, protecting national interests, developing regional cooperation, and strengthening the global security system are gaining particular relevance. The study of this topic holds significant theoretical and practical importance for international politics and sociology, as it analyzes the theoretical foundations of international relations, security mechanisms, and the role of corporate diplomacy in the context of globalization.*

Keywords: *international relations, international politics, foreign policy, international security, regional security, national security, political realism, political idealism, balance of power, security mechanisms, collective security, collective defense, cooperative security, cooperative diplomacy.*

Globallashuv jarayoni xalqaro munosabatlar bilan chambarchas bog'liq, chunki ijtimoiy taraqqiyotning baynalmilallashuvi uning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro munosabatlar ijtimoiy fanlararo soha sifatida namoyon bo'lib, siyosiy sotsiologiya uchun eng muhim mavzulardan biridir. Avvalo, xalqaro munosabatlar tushunchasiga to'xtalish zarur.

Xalqaro munosabatlar — ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos turi bo'lib, ijtimoiy hayotning turli sohalarini, ya'ni iqtisodiy almashinuvdan tortib sport musobaqalarigacha bo'lgan jabhalarni qamrab oladi. Ularni ijtimoiy hayot sohalariga ko'ra siyosiy, iqtisodiy, diplomatik, harbiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy va boshqa turlarga ajratish mumkin. Xalqaro munosabatlar ishtirokchilari — davlatlar, nodavlat tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar hamda ayrim individlardir. Demak, xalqaro munosabatlar davlatlararo munosabatlar, xalqaro tashkilotlar faoliyati va global hamkorlik jarayonlarini o'z ichiga oladi. Tarixiy jihatdan xalqaro munosabatlar davlatchilik paydo bo'lishi bilan birga shakllangan. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlar masalasi azaldan olimlar diqqat markazida bo'lib kelgan. Qadimdan to hozirga qadar davlatlar xavfsizligini ta'minlash masalasi xalqaro munosabatlarning asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Har bir davlat o'z milliy manfaatlariga tayangan holda boshqa davlatlar bilan munosabat olib boradi. Shu bois ular jahon siyosiy va iqtisodiy makonida muhim o'rin egallash uchun doimo raqobat va kurash olib borishadi. Bu kurashning asosiy maqsadi esa boylik, hokimiyat hamda kuch-qudrat manbai bo'lgan resurslarni egallash, ularni taqsimlash yoki qayta taqsimlashdan iboratdir.

Zamonaviy dunyo xalqaro munosabatlari o'zaro aloqadorlik va birlikka asoslangan ulkan tizim — makrotizim sifatida namoyon bo'ladi. Unda turli siyosiy sub'ektlar: xalqlar, davlatlar, ijtimoiy harakatlar va tashkilotlar, shuningdek, xalqaro davlatlararo va nodavlat tashkilotlar ishtirok etadi. Mazkur elementlarning o'zaro bog'liqligi va birligi xalqaro munosabatlarni tashkil qiladi. Bu munosabatlarda ishtirok etuvchi sub'ektlarning faoliyati xalqaro siyosat deb ataladi. Xalqaro siyosat — xalqaro munosabatlar sub'ektlari, avvalo davlatlarning davlatlararo va millatlararo darajadagi (masalan, BMT doirasidagi) faoliyatlarini anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur atamaga yagona ta'rif berilmagan bo'lsa-da, umumiy ma'noda xalqaro siyosat deganda xalqaro munosabatlar sub'ektlari faoliyatining yo'nalishlari, ular qo'llaydigan usul va vositalar tushuniladi. Xalqaro siyosatning sinonimi sifatida tashqi siyosat ham ishlatiladi. Tashqi siyosat — davlat hamda ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning o'z ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlash maqsadida xalqaro miqyosdagi faoliyatdir. U davlatning xalqaro munosabatlardagi siyosiy yo'lini, ustuvor maqsad va vazifalarini, shuningdek, ularni amalga oshirish mexanizmlari, institutlari va usullarini ifoda etadi. Davlatning tashqi siyosati boshqa davlatlar bilan munosabatlarda umume'tirof etilgan xalqaro huquqiy tamoyillar asosida, shu bilan birga milliy manfaatlariga muvofiq tartibga solinadi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida jahon siyosatini shakllantirayotgan uch asosiy omil mavjud: globallashuv (umumsayyoraviy miqyosda), mintaqaviylashuv (alohida hududlar darajasida), milliy davlatchilik (milliy davlat manfaatlarini ustuvor qo'yish tamoyili).

Ushbu tendensiyalar davlatlararo munosabatlarning barcha yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, xavfsizlikni ta'minlashda global va mintaqaviy jarayonlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Hududiy tamoyil davlatlararo tizimda muhim asos sifatida saqlanib qolmoqda. Dunyoning turli qismlarida davlatlararo birlashmalar vujudga kelmoqda, yangi kuch markazlari shakllanmoqda.

Ma'lumki, globallashuv — davlatlararo miqyosda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy munosabatlarning uyg'unlashuvi, markazlashuvi va birxillashuv jarayonidir. Shu bilan birga, u mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ham turtki berdi. Bu yerda ma'lum paradoks ko'zga tashlanadi: bir tomondan, mintaqaviylashuv globallashuvning bosqichi yoki vositasi sifatida namoyon bo'ladi; ikkinchi tomondan esa u millat-davlatlarning o'z manfaatlarini himoya qilish va o'zligini asrab qolish imkonini beradi.

Global (xalqaro) xavfsizlik — xalqaro munosabatlarda nizo va to'qnashuvlarsiz barqarorlik holatidir. Zamonaviy siyosiy-huquqiy adabiyotlarda uning turli ta'riflari uchraydi:

Xalqaro xavfsizlik — yetakchi davlatlar manfaatlari muvozanati asosida yer yuzida tinchlik va barqarorlikni kafolatlash holati.

Xalqaro xavfsizlik — anarxik dunyoda raqobatchi davlatlar kuchlarining muvozanatini ta'minlash holati.

Xalqaro xavfsizlik — umumiy tinchlik va xalqlar xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etuvchi davlatlararo munosabatlar holati.

I.I. Boboqulov va X.P. Umarov ta'rificha, “xalqaro xavfsizlik — davlatlarning suveren rivojlanishi uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish imkonini beruvchi xalqaro munosabatlar holati”dir⁴⁴.

Suveren davlatlar rivojlanishining eng qulay shart-sharoitlari — bu hamma xalqaro subektlar tomonidan tan olinadigan maxsus huquqiy normalar, qonunchilik va ijro organlari, vositalar majmuidir. Umumsayyoraviy miqyosda olinganda global xalqaro xavfsizlik — markazida BMT joylashgan xalqaro tizimdir.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ikki qutbli dunyo barham topgandan so'ng xavfsizlik muammolariga mintaqaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. XXI asrda globallashuv jarayonlari bilan bir qatorda mintaqaviylashuv jarayonlari ham jadal kechmoqda.

Mintaqa umumiy ma'noda geografik, tabiiy, iqtisodiy va boshqa xususiyatlari bilan bog'liq dunyo hududining muayyan qismi sifatida tushuniladi. Shu bilan birga, uni geografik o'zaro munosabatlar va aloqadorlik asosida shakllangan cheklangan miqdordagi davlatlar uyushmasi

⁴⁴ Бобоқулов И.И., Умаров Х.П. Хавфсизлик асослари. Ўқув қўлланма. –Т.: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия аниверситети, 2011. – Б. 94

sifatida ham baholash mumkin. Ilmiy adabiyotlarda mintaqachilik mintaqaning funksional va institutsional jihatdan namoyon bo‘lishi, ya’ni tashkiliy tuzilmalarda ifoda etilishi sifatida ta’riflanadi. Mintaqaviy yondashuv esa mintaqa doirasidagi umumiy muammolarni hal qilishning eng maqbul usuli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, “mintaqaviy xavfsizlik umumiy xavfsizlik tizimida qanday o‘rin tutadi?” degan savol tug‘iladi. Mintaqaviy xavfsizlik — bu milliy va global xavfsizlik orasida joylashgan xavfsizlik darajasi bo‘lib, nisbatan mustaqil va avtonom “kesma” sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tezis uning oraliq va tizim osti xususiyatlarini ochib beradi. Mintaqaviy xavfsizlik tizimi – mintaqa davlatlarining umumiy manfaatlarini samarali muhofaza qilishga qaratilgan xalqaro-huquqiy me’yorlar, milliy va mintaqaviy institutlar, ichki va mintaqaviy kuch vositalari majmui va birligidir. Xavfsizlik tizimlari ierarxiyasida milliy xavfsizlik birinchi o‘rinda turadi. Bu holat, avvalo, davlat suvereniteti g‘oyasi bilan izohlanadi. Milliy xavfsizlik ta’minlanmas ekan, mintaqaviy va global xavfsizlik tizimlarining barqaror faoliyatini tasavvur etib bo‘lmaydi.

Hozirgi zamon xalqaro munosabatlarida suverenitetning o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida bildirilayotgan turli, qarama-qarshi fikrlarga qaramasdan, davlat hamon ichki va tashqi munosabatlarning birlamchi subekti bo‘lib qolmoqda. Chunki, xalqaro munosabatlarning mazmuni, eng avvalo, davlatlarning fundamental manfaatlarini bilan belgilanadi. Aytish joizki, milliy manfaatlar xalqaro munosabatlar tizimini harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.

Ba’zi bir “buyuk davlat”lar, xalqaro tashkilotlar uchun uchun Vestfal tamoyillari ikkinchi darajali hisoblanmoqda. G‘arb jamoatchiligi kundalik turmushida va ongida inson, guruhlar huquqlari ustuvor bo‘lishi lozimligi to‘g‘risidagi g‘oya yuridik jihatdan borgan sari mustahkamlanib bormoqda, ya’ni mana shu asosda ijtimoiy-madaniy hamjamiyatlar suvereniteti milliy-hududiy suverenitetdan yuqori qo‘yilmoqda. Davlat-markazchilik tizimining o‘zgarishlari, uning ma’lum ma’noda “demontaji – qaytadan tuzilishi, yangilanishi” chuqur global inqiroz va tahdidlar davrida kechmoqdaki, zamonaviy davlatlar ularga munosib javob bera olmayaptilar.

Shunday qilib, xalqaro munosabatlar – xalqlar, davlatlar va davlatlar uyushmalari o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, diplomatik, harbiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy va munosabatlarning majmuidir. Modomiki davlatlar mavjud ekan, milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik tizimida milliy xavfsizlik birlamchi xarakterga ega hisoblanadi.

Xulosa: Globallashuv jarayonlari xalqaro munosabatlar tizimida yangi tendensiyalarni shakllantirmoqda. Milliy, mintaqaviy va global xavfsizlik bir-birini to‘ldiruvchi va o‘zaro bog‘liq jarayonlardir. Davlatlarning suveren manfaatlarini saqlanishi bilan bir qatorda, umumbashariy xavfsizlikni ta’minlash BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar faoliyati orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, zamonaviy dunyoda an’anaviy diplomatiyaning o‘rni

transmilliy korporatsiyalar, nodavlat aktorlar va korporativ diplomatiyaning kuchayishi bilan boyib bormoqda.

Xalqaro munosabatlar fanida siyosiy realizm va siyosiy idealizm yondashuvlari hali ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning uyg‘un qo‘llanilishi xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, globallashuv va xalqaro munosabatlar jarayonlarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

REFERENCES

1. Suyunov D. Digitalization of the economy: concepts, problems and implementation strategy // Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – T. 12. – C. 209-218.
2. Davletyarov M. A., state regulation of digital transformation of the economy / / American Journal of Business Administration, Economics and banking. – 2023. - T. 9. - S. 145-150.
3. Suyunov D. X. Improving the introduction of a corporate management mechanism into the development of the business environment. i. f. D. diss / / I. f. D. it is written to obtain a scientific degree in diss. – 2008. - T. 261.
4. Olimovich A. K. project management in the strategic management system of the company / / Galaxy International interdisciplinary research journal. – 2023. - T. 11. – №. 7. - S. 40-44.
5. Khoshimov E. In modern conditions, the main directions of development of the corporate management system in Uzbekistan // economy I innovationie technologii. – 2019. – №. 4. - S. 197-210.
6. .Davletyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. state regulation of digital transformation of the economy / / American Journal of Business Administration, Economics and banking. – 2023. - T. 9. - S. 145-150.